



“O‘ZBEKISTON -2030” STRATEGIYASI: BARQAROR TARAQQIYOTNING
INSON KAPITALI VA INSTITUTSIONAL ISLOHATLAR MODELII.

Xojibekova Sadoqatbonu Zafarjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi “Tasviriy
san‘at” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*
sadoqatovzafarovna@gmail.com

Anotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Strategiya inson kapitalini rivojlantirish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Barqaror rivojlanish, inson kapitali, institutsional transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, modernizatsiya

Аннотация. В данной тезисной работе Стратегия развития Узбекистана до 2030 года анализируется на основе современных теорий социально-экономического развития. На основе научных источников освещается роль стратегии в развитии человеческого капитала, модернизации государственного управления и обеспечении экономической устойчивости.

Ключевые слова: устойчивое развитие, человеческий капитал, институциональная трансформация, цифровая экономика, модернизация.

Annotation. This thesis analyzes Uzbekistan’s Development Strategy up to 2030 based on modern theories of socio-economic development. The study examines the role of the Strategy in advancing human capital development, modernizing public administration, and ensuring economic stability. The research is grounded in contemporary scientific literature and theoretical approaches, highlighting the importance of sustainable development, institutional transformation, and the digital economy in achieving long-term national progress.

Keywords: Sustainable development, human capital, institutional transformation, digital economy, modernization.

Bugungi kunda davlatlarning barqaror rivojlanishi inson kapitali sifati, innovatsion salohiyat va samarali boshqaruv tizimiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishning uzoq muddatli konseptual modeli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur strategiya davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda “inson qadri uchun” tamoyili ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.²²Strategiyaning nazariy -metodologik

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. O‘zbekiston 2030 strategiyasi to‘g‘risida rasmiy hujjat.- Toshkent 2023.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



asoslari uning zamonaviy rivojlanish nazariyalariga tayanadi. Xususan, BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish kun tartibi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillar uyg'unligini ta'minlashni nazarda tutadi.²³ Inson kapitali nazariyasiga ko'ra, ta'lim va malakaga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. G.Becker va T.Schultz tadqiqotlari inson salohiyatini rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashini ilmiy asoslab bergan.²⁴ Shuningdek, yangi institsional yondashuv samarali boshqaruv va huquqiy tizimning taraqqiyotdagi ro'lini ochib beradi. Bu boradagi ustuvor yo'nalishlarni tahlil qilib o'tamiz.

Davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish. Staregiyada davlat xizmatlarini raqamlashtirish, ochiq va shaffoflikni ta'minlash, byurokratik to'siqlarni qisqartirish masalalari ustuvor vazifa soifatida belgilangan.

Inson kapitalini rivojlantirish. Ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmfan va innovatsiyani qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahon banki hisobotlarida ham inson kapitali darajasi iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida ko'rsatilgan.²⁵

Iqtisodiy modernizatsiya va diversifikatsiya. Xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlarida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun iqtisodiy diversifikatsiya va investitsion jozibadorlikni oshirish dolzarb masala ekanligi qayd etilgan.²⁶ Shu jihatdan, staregiyada xususiy sektorni qo'llab quvvatlash va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston-2030 staregiyasi rivojlanishning inson kapitaliga asoslanagan innovatsion modelini shakllantirishga qaratilgan dasturdir. Uning muvaffaqiyatli institutsional izlohatlarning izchilligi, ilmiy monitoring tizimi va xalqaro tajriba integratsiyasiga bog'liqdir. Mazkur staregiya milliy taraqqiyotning barqaror va uzoq muddatli modelini yaratishda konseptual asos bo'lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. O'zbekiston-2030 staregiyasi to'g'risida rasmiy hujjat. Toshkent, 2023.
2. BMT. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015.
3. G.Becker, S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. Chicago: University of Chicago Press, 1993.
4. The World Bank. World development Report. Washington. DC. 2022.
5. International Monetary Fund. Regional Economic Outlook: Central Asia. 2023.

²³ BMT. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015.

²⁴ G.Becker, S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. Chicago: University of Chicago Press, 1993.

²⁵ The World Bank. World Development Report. Washington, DC, 2022.

²⁶ International Monetary Fund. Regional Economic Outlook: Central Asia.-2023.